

QADIMGI YUNONISTON ELLIN MADANIYAT**Yusupova Mahliyo Doniyor qizi****Yusupova Ma'rifat Mirzohid qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

Annotatsiya: *Maqola qadimgi Yunonistonning madaniyati, san'ati, falsafasi va ijtimoiy tizimlarini tahlil qiladi. Unda yunonlarning siyosiy tuzilmasi, g'oyaviy va estetik qadriyatlari, shu bilan birga, ularda rivojlangan teatr, adabiyot, haykaltaroshlik va arxitektura haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqola, shuningdek, yunon falsafasining dunyoqarash va ilm-fan rivojiga qo'shgan ulkan hissasini, afsonalar va qadriyatlarni ham o'rganadi. Yunoniston madaniyatining bugungi kundagi dunyo madaniyatiga ta'siri va uning merosi haqida ham so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Isida, Demetra, Serapis, Afina, Epikur, Pontiy, Ptolemey, Misr.*

Abstract: *The article analyzes the culture, art, philosophy, and social systems of ancient Greece. It provides detailed information about the political structure of the Greeks, their ideological and aesthetic values, as well as the development of theater, literature, sculpture, and architecture. The article also explores the great contribution of Greek philosophy to worldview and the development of science, along with myths and values. It also discusses the influence of Greek culture on modern world culture and its legacy.*

Keywords: *Isis, Demeter, Serapis, Athena, Epicurus, Pontius, Ptolemy, Egypt.*

Аннотация: *Статья анализирует культуру, искусство, философию и социальные системы Древней Греции. В ней представлена подробная информация о политическом устройстве греков, их идеологических и эстетических ценностях, а также о развитии театра, литературы, скульптуры и архитектуры. Также рассматривается огромный вклад греческой философии в формирование мировоззрения и развитие науки, мифы и ценности. Затрагивается влияние греческой культуры на современную мировую культуру и её наследие.*

Ключевые слова: *Исида, Деметра, Серapis, Афина, Эпикур, Понтий, Птолемей, Египет.*

KIRISH

Ellini madaniyati yunonlar va Sharq xalqlarining madaniy yutuqlarining qo'shilib ketishi natijasida shakllandi. Ellin dunyosining ma'naviy shakllanishiga davlatlarning ulkan hajmlari cheklanmagan podsho hokimligining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligini yo'qolishi o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi.

Davlat hokimiyati manfaatdor bo'lgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish. Ellinizm davrida yunon dunyosi sharq diniy tasawurlarni qabul qila boshladi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sig'inish avj oldi.

Misr mabudasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya ma'budasi (Kibela — yemi onasi) bosh xudo sifatida qabul qilina boshlandi. Ellinlashgan sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi. Yahudiy dini keng tarqala boshlandi. Yunonistonda yahudiy dini tarqala boshladi. Yunonlar bu monoteistik dinga ishonib, uni qabul qildilar. Yahudiy diniga yangi qabul qilinganlar «prozelitlar» deb ataldi. Ellin davlatlarida turli xudolar turli xalqlarning diniy e'tiqodlari keng tarqaldi.[1]

Ptolemeylar Misrida qadimgi firavnlarni davrida bo'lganidek podsho hokimiyatining mavqei kuchayib ketdi va Ellin sharqidagi boshqamamlakatlardagi kabi Misrda podsholarga sig'inish yana boshlandi. Ptolemey II Filadel'f o'ziga va o'z singlisi Arsenoyaga sig'inishga buyruq berib, o'zi va singlisi sharafiga ibodatxonalar qurdirdi. Misrda Ptolemey III va uning xotini Berenikaga ham sig'igish keng yoyildi.

Asosiy qism: Antik mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra ellin davrida Yunonistondan aholining katta qismi sharqqa ko'chdi. Faqat Afina va Korinf o'z ahamiyatini saqlab qolishga urindilar. Ellin madaniyati yunonlar va Sharq xalqlarining madaniy yutuqlarining qo'shilib ketishi natijasida shakllandi. Ellin dunyosining ma'naviy shakllanishiga davlatlarning ulkan hajmlari cheklanmagan podsho hokimligining mayjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligini yo'qolishi o'z ta'sirini o'tkazdi.

O'sha davr falsafasida inson shaxsini o'rganish muammosi birinchi o'ringa chiqib boshladi. Er avV—IV asrlarda ikki falsafiy maktab: yangi stoik va epikur maktablari vujudga keldi. Ular inson, shaxs nima, baxt nima degan savollar ustida bosh qotirib boshladilar.. Er avIV asrda Afinada Epikur falsafa maktabi shakllandi. Faylasuf Epikurning bogida uning dostlari va shogirdlari toplanib, falsafiy suhbatlar qurdilar. Bozorlar, maydonlar odamlar kop bolgan joylarda oz talimotlarini targ'ib qilgan Stoiklarga aksan, Epikur tinch va sokin joyda tafakkur qilishni yolg'a qoydi.

Epikurchilar baxtni mohiyati-azobning yoqligidir «Kimda kam ehtiyoj bolsa, u kishida kop farogat boladi»-degan tushunchani ilgari surdilar. Ellin arxitekturasida umumiy va xususiy kishilar foydalanadigan binolar kopchilikni tashkil qilar edi. Kohna Yunonistonning mumtoz memorchiligi asosan Pripter xususiy binolardan iborat edi. Shaharlar odatda reja asosida qurilib, bir- birini kesishib otadigan togri burchakli tik kochalari bilan chiroyli korinar edi.[2]

Er avI asrda Pontiy podsholigida ixtiro qilingan ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan suv tegirmoni ellinistik jamiyatida eng yuqori texnika yutug'i edi. Kam sonli suv tegirmonlari bilan bir qatorda yuz yillar davomida hayvonlar kuchi bilan aylantiriladigan tegirmonlar yaratildi. Konchilik ishi texnika jihatdan eng qoloq mehnatning eng og'ir turi bo'lib konlarga qullar, hukm qilingan jinoyatchilar, harbiy asirlar ko'plab halok bo'ldilar. Ellin davrida tasviriy sa'nat ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda yunon va sharq an'analari qo'shilgan anchagina arxitektura yodgorliklari bunyod etilgan.

Hashamat va ulugvorlikka intilish ularning koplari uchun xos boigan xususiyat xarakterlidir. Haykaltaroshlik sanati bu davrda ancha ravnaq topgan edi. Ammo uning mazmuni klassik davr ananalaridan farq qildi. Mabudalar va qahramonlarning ideallashtirilgan va umumlashtirilgan haykallari orqaga surilib tabiiy tarzda gavalantirilgan va tasvirlangan shaxsning individualligi yaqqol ko'rsatilgan portretlar oldingi qatorga otdi. Ellin davrining haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, galaba, oiim tasvirlab korsatilar edi.[3]

Xulosa: Ellin madaniyati qadimgi Yunonistonning boy madaniy merosi bo'lib, u san'at, falsafa, ilm-fan va siyosat sohalarida katta yutuqlarga erishgan. Bu madaniyat, ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy istilolari tufayli yunon madaniyatining Sharq bilan aralashib, yangi uyg'unlik hosil qilishi bilan ajralib turadi. Ellinizm davrida yunon tili xalqaro aloqa vositasiga aylangan, fan va texnologiya rivojlanib, muhim ilmiy kashfiyotlar yuzaga kelgan.

Arxitektura va san'at sohasida yunon uslubi keng tarqalib, teatr va haykaltaroshlik yangi bosqichga ko'tarilgan. Falsafada Aristotel, Platon, Epikur kabi mutafakkirlarning g'oyalari jamiyat hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ilm-fan sohasida esa Evklid geometriyasi, Arximed mexanikasi va Ptolemey astronomiyasi butun dunyo sivilizatsiyasiga asos bo'lib xizmat qilgan.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rajabov. R Qadimgu dunyo tarixi T. Fan va texnologiya,2009. 440 bet.
- 2.Boynazarov F.A Qadimgi dunyo tarixi T:2004
- 3.Avdeyev V.I Qadimgi sharq tarixiga kirish, Toshkent- 1964, 650 Bet
4. Pikus N N. Krushkol Yu.S. Qadimgi dunyo tarixi. II bob T 1975